


### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 21 616,3 mlrd so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 104,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 21 089,3 mlrd so‘mni (104,1 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd. so‘mni (100,2 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari 172,1 mlrd so‘mni (102,9 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari 354,8 mlrd so‘mni (104,5 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari**



Xususan, yuqori o‘shish sur‘ati Tuproqqal‘a (111,8 foiz), Xiva (106,3 foiz) va Xonqa (105,9 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Gurlan tumanida (100,3 foiz) va Xiva (100,7 foiz) shahrida kuzatildi.


### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida - 12,0 foiz, Bog‘ot va Qo‘shko‘pir tumanlarida - 10,4 foiz, Xonqa tumanida - 10,2 foiz, Hazorasp tumanida - 9,6 foiz, Gurlan tumanida - 9,2 foizni tashkil etdi. Xiva shahri - 0,3 foiz, Urganch shahri - 2,2 foiz va Tuproqqal‘a tumani - 2,5 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,3 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2024-yilning yanvar- sentabr oylarida 20 807,9 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 105,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,3 foizni tashkil qildi.

**2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon va tomorqa xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2024- yil yanvar - sentabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 72,2 foizini (2023- yil yanvar- sentabr oylarida – 73,0 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 21,8 foizi ishlab chiqarilgan (2023- yil yanvar-sentabr oylarida 22,3 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 6,0 foizi (2023- yil yanvar- sentabr oylarida – 4,7 foiz) ishlab chiqarilgan.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi**



### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2024- yilning yanvar- sentabr oylarida 20 807,9 mlrd so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 8 510,5 mlrd so'mga teng qismi yoki 40,9 foizi dehqonchilik, 12 297,4 mlrd. so'mga teng qismi yoki 59,1 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog'ot tumani (50,7 foiz), Xonqa tumani (47,1 foiz), Tuproqqal'a tumani (46,8 foiz) yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida bu ko'rsatkich 2,8 foiz bo'lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog'ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahrida (97,2 foiz), Xiva shahrida (73,4 foizi), Hazorasp tumanida (64,9 foiz) qayd etildi.

## Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tuproqqal’a tumanida (33,0 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,3 foizi) va Xiva shahrida (95,4 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qo‘shko‘pir tumanida (17,5 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq (14,6 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal’a tumanida (57,7 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (0,7 foizi) hamda Yangibozor tumanida (1,0 foizi) qayd etildi.


## Aholi jon boshiga yetishtirilgan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti

№	Hududlar	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti		Aholi jon boshiga o‘rtacha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsuloti	
		mlrd so‘m	O‘sish sur‘ati %	ming so‘m	O‘sish sur‘ati %
<b>Xorazm viloyati</b>		<b>21 616,3</b>	<b>104,1</b>	<b>10 763,6</b>	<b>102,2</b>
1	Urganch sh	477,3	102,2	3 096,4	100,2
2	Xiva sh	61,5	100,7	619,5	99,0
<i>tumanlar:</i>					
3	Bog‘ot	2 253,6	105,0	12 713,5	103,0
4	Gurlan	1 986,5	100,3	12 564,6	98,7
5	Qo‘shko‘pir	2 257,9	104,9	12 323,0	103,1
6	Urganch	2 591,7	102,8	12 042,1	100,7
7	Xazorasp	2 083,2	105,5	10 044,2	103,5
8	Tuproqqal‘a	549,3	111,8	9 189,0	109,3
9	Xonqa	2 199,9	105,9	11 020,1	104,0
10	Xiva	1 761,4	106,3	11 293,1	104,2
11	Shovot	1 721,7	103,2	9 486,9	101,3
12	Yangiariq	1 844,1	105,0	14 893,9	103,2
13	Yangibozor	1 828,2	101,0	19 656,9	99,3



**Dehqonchilik.** 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 8 510,5 mlrd so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 40,9 foizini tashkil qildi. 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 105,1 foizni, jumladan, fermerxo‘jaliklarida 3 970,1 mlrd so‘mni, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 3 715,4 mlrd so‘mni, qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 825,0 mlrd so‘mni tashkil qildi.

### Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



**Hosil yig‘imi.** 2024- yilning yanvar - sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 477 312 tonna don va dukkakli don (123,1 foiz), 395 710 tonna boshogli don (126,6 foiz), shundan 388 475 tonna bug‘doy (126,4 foiz), 131 973 tonna kartoshka (101,7 foiz), 427 002 tonna sabzavot (104,4 foiz), 110 978 tonna poliz (100,9 foiz), 135 541 tonna meva va rezavorlar (103,1 foiz), 34 609 tonna uzum (105,2 foiz) yetishtirildi.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan  
dehqonchilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Bug'doy, tonna</b>	<b>388 475</b>	<b>126,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	293 852	136,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	78 200	100,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	16 423	113,3
<b>Makkajo'xori don uchun, tonna</b>	<b>9 082</b>	<b>96,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	5 562	96,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	2 505	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1 015	86,7
<b>Sholi, tonna</b>	<b>69 697</b>	<b>114,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	40 226	125,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	26 603	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2 868	117,0
<b>Dukkakli don, tonna</b>	<b>1154</b>	<b>110,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	686	97,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	267	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	201	2,9 m.
<b>Paxta, tonna</b>	<b>188384</b>	<b>101,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	109599	71,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	-	-
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	78 795	2,4 m.
<b>Kartoshka, tonna</b>	<b>131 973</b>	<b>101,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	31 160	101,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	98 645	101,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2 168	156,5




	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Sabzavot, tonna</b>	<b>427 002</b>	<b>104,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	50 126	113,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	361 375	103,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	15 501	111,3
<b>Poliz, tonna</b>	<b>110 978</b>	<b>100,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	50 839	101,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	56 017	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4 122	101,2
<b>Meva va rezavorlar, tonna</b>	<b>135 541</b>	<b>103,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	51 091	106,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	82 603	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1 847	158,8
<b>Uzum, tonna</b>	<b>34 609</b>	<b>105,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	10 304	115,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	23 853	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	452	187,6



**Chorvachilik.** 2024- yilning yanvar - sentabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 12 297,4 mlrd so'mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 103,3 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 565,2 mlrd so'mni (104,9 foiz), dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 11 299,1 mlrd so'mni (103,4 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 433,1 mlrd so'mni (100,2 foiz) tashkil qildi.


**Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)**



2024 - yilning 1 – oktabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 100,8 foizni (jami 967,1 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan, sigirlar 100,5 foizni (369,1 ming bosh), qo'y va echkilar 102,8 foizni (501,9 ming bosh), otlar 100,7 foizni (5,5 ming bosh), parrandalar 106,1 foizni (7235,5 ming bosh) tashkil qildi.

## Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi


2024- yilning 1- oktabr holatiga



- - fermer xo‘jaliklari
- - dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sh, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sh ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 91,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,6 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 82,1 foizni tashkil etdi.

## 2024- yil yanvar - sentabr oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jaliklar toifalarining ulushi



- - Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- - Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- - Fermer xo‘jaliklari

## 2024- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>967,1</b>	<b>100,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	79,6	106,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	872,5	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	14,9	106,7
<b>ulardan: sigirlar</b>	<b>369,1</b>	<b>100,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	33,0	107,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	330,3	99,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,8	108,6
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>501,9</b>	<b>102,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	86,0	103,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	382,5	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	33,4	136,0
<b>Otlar, bosh</b>	<b>5538</b>	<b>100,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	834	107,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	4631	99,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	73	109,0
<b>Parrandalar</b>	<b>7235,5</b>	<b>106,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	1133,2	107,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	3946,6	100,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2155,7	117,4

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan  
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>147,0</b>	<b>104,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	5,0	105,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	129,6	104,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	12,4	99,8
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>944,3</b>	<b>102,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	44,1	101,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	896,3	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,9	85,1
<b>Tuxum, mln dona</b>	<b>388,5</b>	<b>101,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	39,3	102,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	279,5	101,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	69,7	103,4
<b>Jun, tonna</b>	<b>1199</b>	<b>102,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	137	109,6
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	1030	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	32	177,8
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>9021</b>	<b>103,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	713	125,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida	8228	101,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	80	106,7

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 4535,3 mlrd.so‘mni yoki 2023- yilning tegishli davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 21,8 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)**



2024- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 79,6 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 33,0 ming bosh sigir, 86,0 ming bosh qo‘y va echki, 834 bosh ot, 1133,2 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2023 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 106,1 foizni, shu jumladan, sigirlar 107,1 foizni, qo‘y va echkilar 103,0 foizni, otlar 107,2 foizni, parrandalar 107,2 foizni tashkil qildi.


**2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	yanvar-sentabr				2023-yanvar-sentabr oylariga nisbatan foiz hisobida
	2023- yil		2024- yil		
	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Kartoshka	30809	23,7	31160	23,6	101,1
Sabzavot	44311	10,8	50126	11,7	113,1
Poliz	50045	45,5	50839	45,8	101,6
Go‘sh, tirik vaznda	4690	3,3	4958	3,4	105,7
Sut	43479	4,7	44079	4,7	101,4
Tuxum, ming dona	38561	10,1	39354	10,1	102,1

**2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Jami don (tonna)**

*Jami viloyat bo‘yicha*  
**477 312**




**Boshqli don (tonna)**

*Jami viloyat bo‘yicha*  
**395 710**




**Bug‘doy (tonna)**

*Jami viloyat bo‘yicha*  
**388 478**



**Kartoshka (tonna)**


*Jami viloyat bo‘yicha*  
**131 973**



**2024 - yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Sabzavot (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**427 002**




**Poliz (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**110 978**




**Meva va rezavorlar (tonna)**  
*Jami viloyat bo'yicha* **135 541**



**Uzum (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**34 609**







2024- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha 967 116





shu jumladan, sigirlar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha 369 081



Qo'ylar va echkilar (*bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha  
501 945




Parrandalar (*ming bosh*)  
Jami viloyat bo'yicha  
7235,5




2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Go'sht (ming tonna)  
Jami viloyat  
bo'yicha 147,0




Sut (ming tonna)  
Jami viloyat  
bo'yicha 944,3




Tuxum (mln dona)  
Jami viloyat  
bo'yicha 388,5



Jun (tonna)  
Jami viloyat bo'yicha 1199



Baliq (tonna)  
Jami viloyat  
bo'yicha 14704,3



2024- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar soni

Shahar va tumanlar nomi	Fermer xo'jaliklari soni	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi yirik tashkilotlar soni	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalar soni
Bog'ot	356	2	75
Gurlan	430	4	206
Qo'shko'pir	412	1	64
Urganch	371	4	109
Hazorasp	383	1	42
Tuproqqal'a	234	3	49
Xonqa	504	2	122
Xiva	348	4	58
Shovot	565	1	30
Yangiariq	322	3	63
Yangibozor	462	1	68
Urganch sh	-	7	28
Xiva sh	-	1	27
<b>Viloyat jami</b>	<b>4387</b>	<b>34</b>	<b>941</b>

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Fermer xo'jaliklari** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.